

## IXTISOSLASHGAN MAKTAB O'QUVCHILARI O'QUV MOTIVLARI BILAN TA'LIMGA HISSIY MUNOSABAT O'Rtasidagi BOG'LIQLIK.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15400027>

**Xodjayeva Dilnavoz Djumoyevna**

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Psixologiya kafedrasи tayanch doktoranti*

*E-mail:* dilnavozxodjayeva13@gmail.com

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining ta'limga bo'lgan hissiy munosabati, hissiy munosabat va o'quv faoliyatining motivatsiyasi o'rtaqidagi bog'liqligi haqida ilmiy tadqiqot natijalari asosida ma'lumotlar berib o'tilgan. Ta'limga bo'lgan hissiy munosabat va o'quv faoliyati o'rtaqidagi farqlar jinsiy va hududiy doirada tahlil qilinib, ilmiy faktlar keltirilgan.

### **Kalit so'zlar**

o'quv motivatsiyasi, hissiy munosabat, o'zaro aloqadorlik, jinsiy farqlar, hududiy tafovutlar, ta'limga munosabat.

## **ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ УЧЕБНЫМИ МОТИВАМИ УЧАЩИХСЯ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛ И ИХ ЭМОЦИОНАЛЬНЫМ ОТНОШЕНИЕМ К ОБУЧЕНИЮ**

### **Аннотация**

В данной статье представлена информация о взаимосвязи между эмоциональным отношением учащихся специализированных школ к обучению, эмоциональным отношением и мотивацией учебной деятельности на основе результатов научного исследования. Проанализированы различия между эмоциональным отношением к образованию и учебной деятельностью в половой и территориальной сферах, приведены научные факты.

### **Ключевые слова**

учебная мотивация, эмоциональное отношение, взаимосвязь, гендерные различия, региональные различия, отношение к образованию.

## **THE RELATIONSHIP BETWEEN LEARNING MOTIVES AND EMOTIONAL ATTITUDES TOWARDS EDUCATION AMONG STUDENTS OF SPECIALIZED SCHOOLS**

## Abstract

This article provides information based on the results of scientific research on the relationship between the emotional attitude of students of specialized schools to learning, emotional attitude, and motivation for educational activity. Differences between emotional attitude to education and educational activity are analyzed on a gender and territorial scale, and scientific facts are presented.

## Keywords

learning motivation, emotional attitude, interconnection, gender differences, territorial differences, attitude towards education.

**Kirish.** Katta maktab yoshi shaxsning asosiy ko'rsatmalaridan biriga aylanadigan integrativ o'zini o'zi anglash va barqaror "Men" obrazining shakllanish davri hisoblanadi [3]. O'zi haqidagi real va ideal tasavvurlarni taqqoslash "Men" konsepsiyasining asosi bo'lib, unda ikki jihatni ajratib ko'rsatish mumkin: o'zi haqidagi bilim va o'z-o'ziga munosabat, ya'ni "Men" ma'nosining ifodalanishi [Stolin]. Katta maktab yoshida o'quvchilarning motivatsion sohasining umumiy tuzilishi va mazmunida o'zgarishlar sodir bo'ladi [5].

Emotsional sohaning o'zi ham rivojlanadi. Ko'plab psixologik va pedagogik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan bolaning taklif qilingan topshiriqqa qanday hissiy munosabatda bo'lishiga, o'z muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini qanday boshdan kechirayotganiga, unda o'qituvchiga nisbatan qanday hissiy munosabat shakllanganiga va hokazolarga bog'liq. Shunday qilib, emotsional munosabat motivatsiyaning muhim qismi bo'lib, ma'lum yosh xususiyatiga ega.

Biroq, shaxsning rivojlanish jarayoni va o'quv faoliyati motivatsiyasi ko'p jihatdan bolaning jinsi, uning tegishli rollarni qabul qilishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, shaxs ichki tuzilishining o'zgarishi ham ko'p jihatdan turli yosh va jinsdagi o'quvchilarga xos bo'lgan motivatsiya va o'z-o'ziga munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-apreldagi PF-55-sod "Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [2] farmoni maktab ta'limtarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun avvalo, ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini o'qishga bo'lgan o'quv motivini, hissiy

munosabatini aniqlagan holda ta'limga hissiy munosabatni tashxislash metodikasi sinaluvchilarining hududlar kesimidagi tahliliga e'tibor qaratsak, tashvish shkalasi ( $U=3747,500$ ;  $p<0.01$ ) ko'rsatkichlar bilan 99% ishonch darajasida Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida yuqori ko'rsatkichlar bilan

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining o'quv motivatsiyasining psixologik xususiyatlarini o'rGANISH va unga xarakterlovchi psixologik omillarni aniqlash uchun Ch.D.SPiLberger tomonidan ishlab chiqilgan A.D.Andreeva tomonidan moslashtirilgan Ta'limga hissiy munosabatni tashxislash metodikasidan foydalanildi.

### 3.2.1-jadval.

**Ta'limga hissiy munosabatni tashxislash metodika ko'rsatkichlarining normal taqsimlanishga mosligini tekshirish (Kolmogorov-Smirnov mezoni, n=304)**

Shkalalar	O'rtacha	St.og'ish	Kolmogorov-Smirnov Z	p
Kognitiv faoliyat	27,9	4,4	,099	0,000**
Muvaffaqiyat motivatsiyasi	29,3	3,9	,095	0,000**
Tashvish	22,8	3,3	,093	0,000**
G'azab	17,9	5,3	,125	0,000**

Izoh: \*\* -  $p<0.01$

Ta'limga hissiy munosabatni tashxislash metodikasidan olingan natijalarga ko'ra, kognitiv faoliyat ( $Z=0,99$ ;  $p<0.01$ ), muvaffaqiyat motivatsiyasi ( $Z=0,95$ ;  $p<0.01$ ), tashvish ( $Z=0,93$ ;  $p<0.01$ ) va g'azab shkalalalari shkalalar yuqorida ko'rsatgichlar orqali 99% ishonch darajada normal taqsimlanmaganligini ko'rishimiz mumkin.

### Olingan natijalar va ularning tahlili.

**Ta'limga hissiy munosabatni tashxislash metodika sinaluvchilarining hudud kesimiga ko'ra tahlili (Mann-Uittni - U mezoni)**

Ko'rsatkichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Qashqadaryo ixtisoslashtirilgan maktabi (n=105)	Toshkent ixtisoslashtirilgan maktabi (n=111)		
Kognitiv faoliyat	104,46	117,42	4718,000	0,145
Muvaffaqiyat motivatsiyasi	104,09	118,12	4665,000	0,115
<b>Tashvish</b>	<b>97,58</b>	<b>130,19</b>	<b>3747,500</b>	<b>0,000**</b>
<b>G'azab</b>	<b>127,07</b>	<b>99,26</b>	<b>3985,000</b>	<b>0,002**</b>

Izoh: \*\* -  $p<0.01$

"Ta'limga hissiy munosabatni tashxislash" metodikasi sinaluvchilarining hududlar kesimidagi tahliliga e'tibor qaratsak, tashvish shkalasi ( $U=3747,500$ ;  $p<0.01$ ) ko'rsatkichlar bilan 99% ishonch darajasida Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida yuqori ko'rsatkichlar bilan

yetakchilik qildi. Toshkent poytaxt sifatida yuqori imkoniyatlarga ega shahar. Shu bilan birgalikda katta shaharda yashash stressli holatlardan ham holi emas. Tezlikda rivojlanayotgan shaharda o'quvchilarda har bir narsaga ulgurish, vaqtida mакtabga yetib kelish, tanlovlар orasida ikkilanish, kelajakdan xavotirlanish ularda tashvish hissini yuzaga keltiradi. Ya'ni doimiy bosim, rivojlanishda tengqurlaridan ortda qolmaslik, ular zimmasiga ortiqcha yuk olib kelishi natijasida o'quvchilarda xavotirlanish, tashvish kabi hislarni namoyon qilishga sabab bo'ladi. G'azab shkalasida esa ( $U=3985,000$ ;  $p<0.01$ ) ko'rsatkich bilan Qashqadaryo ixtisoslashtirilgan maktabi o'quvchilari yuqori natija qayd etishdi. Qoniqarsizlik insonning asosiy ehtiyoji birinchi navbatda sevgi va e'tiborda oilaviy tarbiya sharoitlari bilan bog'liq va oila ichidagi munosabatlar. Viloyatlarda katta shahlardagidek hammada imkoniyatlar keng emas va turmush tarzi qiyinroq. Katta oilalarda, katta hovlilarda yashaydigan o'quvchilarda ona doimiy ish bilan band bo'lishi, o'quvchiga vaqtini ajratmasligi o'quvchiga e'tiborni, mehrni yetishmasligi oqibatida o'quvchi ruhiyatida salbiy o'zgarishlarga olib keladi. Bezovtalik, sovuqqonlik, hurmatsizlik shaxsiyatni rivojlantirish, hissiy rad etish, doimiy janjal, mos kelmaydigan talablar, ortiqcha qattiq jazolar - bularning barchasi o'quvchida jahl hissiga, o'zidan qoniqmaslikka sabab bo'ladi. Shahar sharoitida onalarni o'z ustida ishslash imkoniyatini mavjudligi, turmush tarzini biroz yengilligi, o'quvchilarni atrofdagilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, yoshga xos xususiyatlarini inobatga olib munosabat o'rnatish ularda ishonch, olamga ijobiy ko'z bilan qarashga undaydi. Aksincha bo'lishi esa, o'quvchilarda g'azab, ishonchsizlik, qurquv hissini namoyon qiladi.

### 3.2.3-jadval.

#### Ta'lim motivatsiyasi va ta'limga hissiy munosabatni tashxislash metodikasi sinaluvchilarining jinsi ko'ra tahlili (Mann-Uittni - U mezoni)

Ko'rsatgichlar	O'rtacha ranglar		U	p
	Qizlar (n=122)	O'g'il o'quvchilar (n=182)		
Kognitiv faoliyat	117,48	103,75	4857,500	0,116
Muvaffaqiyat motiv	<b>120,85</b>	101,66	4577,500	<b>0,028*</b>
Tashvish	<b>122,73</b>	100,50	4421,500	0,011*
G'azab	113,55	106,18	5183,000	0,399

Izoh: \* -  $p<0.05$ ;

Navbatdagi jadvalda "Ta'lim motivatsiyasi va ta'limga hissiy munosabatni tashxislash" metodikasi ko'rsatkichlarining jinsga bog'liqligini o'rganish natijalariga binoan muvaffaqiyat motivi ( $U=4577,500$ ;  $p<0.05$ ) ko'rsatkichlar bilan, tashvish motivi esa ( $U=4421,500$ ;  $p<0.05$ ) ko'rsatkichlar bilan 95% ishonch

darajalarida qizlarda yigitlarga qaraganda yuqori natija aniqlandi. Bunga ko'ra qizlarda yigitlarga qaraganda biron bir ish boshlaganda yoki qilganda boshqalarda turtki kutib o'tirishmaydi ya'ni o'zlarida undovchi kuch topishlari bilan o'z-o'zlarini motivlashtira olish qobilyatlari yaxshi rivojlangan. Tabiatan qizlar yigitlarga qaraganda muvaffaqiyatga intiluvchan, tirishqoq, to'siqlarga nisbatan chidamli bo'lishadi. Tashvish borasida ham qizlar yigitlarga qaraganda qizlarda yuqori natija qayd etishdi. Buning sababi qizlar hissiy jihatdan yigitlarga qaraganda ancha barqaror bo'lishadi. Qizlar ko'p hollarda vaziyatlarga nisbatan hissiyotlariga tayanib ish ko'rishadi. Xursandchilik holatlarida tez quvonishadi, xafagarchilik holatida qayg'uga tez berilishadi va bu esa qizlarda hissiy jabha ustuvorligidan dalolat beradi. Biroz ko'ngilsizlik holatlari ham qizlarda tashvishga sabab bo'ladi.

**Xulosa.** Ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilar uchun motivatsiyaning maxsus shakllari o'ziga xosdir, chunki ular faqatgina umumiy o'quv dasturlariga emas, balki ma'lum bir sohada chuqur bilim olishga yo'naltirilgan. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarni o'ziga xos motivatsion strategiyalarni qo'llashga bog'liq ekan. O'quv motivatsiyasining rivojlanishida o'quvchilarning ichki va tashqi motivlarining uyg'unlashuvi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiliy munosabatlar muhim rol o'ynashi yana bir bor dalillandi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ular o'zlarini qiziqadigan yoki ixtisoslashgan sohalarga chuqurroq kirishga tayyor bo'lishlari bilan bog'liq. Shuningdek, shaxsiy xususiyatlar, masalan, intellektual qobiliyat, o'ziga bo'lgan ishonch va o'zgarishga ochiqlik, motivatsiyaning oshishiga yordam berishi yoritildi. Shaxsiy xususiyatlarning o'zgarishi o'quvchilarning muvaffaqiyatga erishish istagini mustahkamlashi yoki aksincha, ularning motivatsiyasi pasayishiga olib kelishi mumkin. Psixologik salohiyatning yuqori darajasi, o'quvchilarning o'zini o'rganishga va rivojlanishga bo'lgan ishtiyoyqini kuchaytiradi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda motivatsiyani oshirishda individual yondashuvlar va psixologik qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni rag'batlantirish, ularning qiziqishlariga mos o'qish usullarini tanlash va maqsadli yondashuvlar motivatsiyani yuqori darajaga olib keladi. O'qituvchilarning psixologik kompetensiyasi, ya'ni o'quvchilarning ichki motivatsiyasini aniqlash va unga mos ravishda o'qish faoliyatini tashkil etish juda muhim. Shuningdek, o'quvchilarni muvaffaqiyatlarga erishganida yuksaltirish va qiyinchiliklar bilan kurashishda ularni qo'llab-quvvatlash strategiyalari samarali bo'ladi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quv motivatsiyasini oshirish uchun pedagogik va psixologik usullarni o'rganish va doimiy ravishda yangilash zarur. O'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlari, psixologik holatlari va qiziqishlariga

asoslangan motivatsion metodlarni qo'llash, ularning o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishda yordam beradi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sod Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017. - 6 (766)-son. - B.140
2. Sh.Mirziyoyev. "Mamlakatimizda ta'lif-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi" bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi. 2020 yil 30 oktyabr.
3. Бакетин, П. Т. Понятие мотивации в трудах отечественных и зарубежных психологов: монография / П. Т. Бакетин. -Москва: Лаборатория книги, 2012. -144 с.
4. Baxtiyorov R.M. Talabalarda o'quv motivatsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik talablari. // Inter education & global study. 2024. № 3(2). B.133-141.
5. Вартанова.И.И. Мотивационно-эмоциональное отношение к учебе старшеклассников различного пола и возраста // Психологическая наука и образование – 2019. Том 24. № 5
6. E.S.Yuldashev "O'quvchilarning o'quv faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiyasini shakllantirish" Volume 4 | KSPI Conference 1 | 2023
7. Жаворонкова Ю.М., Кильмасова И.А., Мотивация учебной деятельности у детей младшего школьного возраста 2017 УДК 37.013.42
8. Зайцев, С. В. Ситуация выбора как средство диагностики учебной мотивации и самооценки у младших школьников / С. В. Зайцев // Вопросы психологии. -2009. -№ 5. -С.54-64
9. Иванова Галина Павловна, Слухаева Марина Александровна "Взаимосвязь самооценки и учебной мотивации младших подростков в процессе школьной адаптации". УДК 159.922.736.4
10. Каленникова.Т.Г., Борисевич.А.Р. Словарь психолого-педагогических понятий: справочное пособие для студентов всех специальностей очной и заочной формы обучения / авт.-сост.. -Минск: БГТУ, 2007. -68 с.